

Arzon uy-joylar uchun dastlabki badal summasi kamaytirildi

2018 yilda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar va shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylar qurish dasturlarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Prezident qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq arzon uy-joylarning dastlabki badali quyidagicha belgilandi:

1) qishloq joylarda:

0,02 ga o'lchamli yer uchastkalarida joylashtiriladigan ikki, uch, to'rt, besh qavatli ko'p kvartirali (2 va 3 xonali) va 2, 3 xonali bir qavatli arzon uy-joylar uchun - 10 foiz miqdorida;

0,04 ga o'lchamli yer uchastkalarida joylashtiriladigan ikki qavatli 4 xonali birlashtirilgan arzon uy-joylar va 0,06 ga o'lchamli yer uchastkalarida joylashtiriladigan 3, 4 va 5 xonali arzon uy-joylar uchun - 25 foiz miqdorida;

2) shaharlarda dastlabki badalning tabaqalashtirilgan miqdorini amaliyotga joriy etgan holda o'rtacha 15 foiz miqdorida.

Mazkur ipoteka kreditlari 2018 yil 1 iyuldan 2020 yil 1 yanvargacha bo'lgan davrda 20 yil muddatga, 3 yillik imtiyozli davr hamda birinchi 5 yil mobaynida yillik 7 foiz stavkasi bilan va keyingi davrda Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi miqdorida beriladi.

Eslatib o'tamiz, arzon uy-joylar uchun dastlabki badal shu kunga qadar sotib olinadigan uy-joy qiymatining kamida 25 foizini tashkil etishi lozim edi.